

2022-yilda Xivada birinchi “Lazgi” xalqaro raqs festivali boshlandi, kelajakda u har ikki yilda bir marotaba 25-30 aprel kunlari o’tkaziladi.

Festival doirasida Xiva shahridagi “Ichan-qal’a” tarixiy majmuasida raqs, milliy cholg’u asboblari va liboslar namoyishi, hunarmandchilik buyumlari, tasviriy va amaliy san’at asarlari, haykaltaroshlarning ishlari, fotosuratlar va kitoblar namoyish etilmoqda.

O’zining noyob uslubi va jozibaliligi tufayli Lazgi raqsi butun dunyoda mashhurlikka erishgan va uni YUNESKO Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro’yxatiga kiritgan.

Endilikda “Lazgi” xalqaro raqs festivali bahor oyida O’zbekistonga tashrif buyurish uchun sabablardan biridir. Uzbekistan Airways har kuni Toshkentdan Urganchga to’g’ridan-to’g’ri aviaqatnovlarni amalga oshiradi. Bu esa sayyoohlarga va mehmonlarga Urganchga tashrif buyurish va istalgan vaqtida Xivaga borib, sharqona ertak muhitiga sho’ng’ish imkoniyatini taqdim etadi.



[Download PDF](#)